ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE IMPACT OF HOUSING BUBBLES ON COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM NPL, LCR, AND CAR (2020–2025).....	826
---	-----

Botirov Islombek Ulug'bek o'g'li

TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT TIZIMIDA ESG-MA'LUMOTLAR O'RNI	836
--	-----

Madaminov Bekzod Allayarovich

TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT TIZIMIDA ESG-MA'LUMOTLAR O'RNI

Madaminov Bekzod Allayarovich

Ma'mun universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i,
fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), v.b. professor
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2806-691X>

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar banklarida ESG-omillar, raqamli transformatsiya va Big Data texnologiyalarining kredit hamda investitsion portfelni boshqarishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot ESG tamoyillari orqali risklarni kamaytirish, barqaror investitsiyalarni shakllantirish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, shuningdek raqamli va analitik platformalarning samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini asoslaydi. Olingan natijalar bank faoliyatida ESG, Big Data va texnologik innovatsiyalarni uyg'unlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: bank, ESG omillari, Big Data, texnologik innovatsiyalar, operatsion qarorlar, risk-menejment, kredit riski.

Abstract. This article analyzes the role of ESG factors, digital transformation, and Big Data technologies in managing credit and investment portfolios in banks across developed and developing countries. The study demonstrates the importance of ESG principles in reducing risks, promoting sustainable investments, and strengthening financial stability, as well as the contribution of digital and analytical platforms to operational efficiency. The findings confirm the necessity of an integrated approach in banking that combines ESG practices, Big Data analytics, and technological innovation.

Keywords: bank, ESG factors, Big Data, technological innovation, operational decisions, risk management, credit risk.

Аннотация. В данной статье анализируется роль ESG-факторов, цифровой трансформации и технологий Big Data в управлении кредитным и инвестиционным портфелем банков развитых и развивающихся стран. Исследование обосновывает значение принципов ESG в снижении рисков, формировании устойчивых инвестиций и укреплении финансовой стабильности банков, а также раскрывает вклад цифровых и аналитических платформ в повышение операционной эффективности. Полученные результаты подтверждают необходимость внедрения интегрированного подхода, сочетающего ESG-практики, технологии Big Data и технологические инновации в банковской деятельности.

Ключевые слова: банк, ESG-факторы, Big Data, технологические инновации, операционные решения, риск-менеджмент, кредитный риск.

KIRISH

Global va milliy miqyosda iqtisodiyotda kuzatilayotgan tarkibiy o'zgarishlar va siklik tebranishlar ayrim davrlarda retsessiya ehtimolini oshirmoqda. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan strategik taraqqiyot yo'nalishi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda va iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi biznes jarayonlariga ilgari tijorat banklari tomonidan yetarli darajada qamrab olinmagan keng ko'lamdagi axborot resurslarini integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu esa bank faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat manfaatlari va korporativ boshqaruv tamoyillarini tizimli ravishda inobatga olish zaruratidan kelib chiqadi.

Mazkur ustuvor yo'nalishlar ilmiy adabiyotlar va amaliy hujjatlarda ESG (Environmental, Social, Governance) atamasi bilan ifodalanadi, biroq ushbu parametrlarning mazmuni turli manbalarda turlicha talqin etiladi [1] (Zhirnova, 2022). Bank sohasida tashqi muhit (me'yoriy-huquqiy va kon'yunkturaviy omillar) hamda mijozlarning xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash allaqachon biznesning standart funksional qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda bank qarorlarini moslashtirib borish imkonini beradi.



Biroq “yashil transformatsiya” jarayoni bank faoliyatida mutlaqo yangi va sezilarli hajmdagi ma’lumotlar oqimini shakllantirmoqda. Aksariyat tijorat banklari ushbu ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish va samarali boshqarish uchun zarur tashkiliy va texnologik infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirib bormoqda. Bu jarayon banklarning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ma’lumotlar sifatini oshirish, analitik platformalarni takomillashtirish va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini joriy etishni talab etadi. Mazkur yo’nalishdagi tizimli yondashuv banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, strategik boshqaruvning sifat jihatidan yangi bosqichiga o’tishni taqozo etadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur adabiyotlar sharhi rivojlanayotgan bank sektorida ESG-faktorlar, raqamli transformatsiya va Big Data texnologiyalarining kredit hamda investitsion portfelni boshqarish, shuningdek iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini yoritadi. Ilmiy manbalarda ESG-faktorlar barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida bank portfeli risklarini optimallashtirish va mas’uliyatli investitsiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya bank biznesining strategik ustuvor yo’nalishiga aylangan bo’lib, real vaqt rejimida monitoring, prognozlash va raqamli xizmatlar samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Big Data va analitik platformalar kredit risklarini prognozlash, portfelni diversifikatsiya qilish va operatsion qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beruvchi muhim resurs sifatida e’tirof etiladi. ESG ma’lumotlarini boshqarish va texnologik infratuzilmani optimallashtirish masalalari esa banklarning raqobatbardoshligini oshirish hamda texnologik risklarni samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan yondashuv – ESG prinsiplari, Big Data tahlili va raqamli transformatsiyani uyg’unlashtirish – banklarning barqarorligi, moliyaviy xavfsizligi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omili sifatida namoyon bo’ladi.

O’zbekiston olimlari B.T. Berdiyarov [11], V.A. Kotov, I.L. Butikov, N.X. Jumayev, O.B. Sattarov [12], O.Q. Abduraxmanov, R.T. Tursunov, R.R. Tojiyevlar [13] tijorat banklari faoliyati, ularning vazifalari va rivojlanishining nazariy hamda amaliy jihatlarini keng yoritganlar. Shuningdek, bank marketingi va moliyaviy menejmentni boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish masalalari A.Sh. Bekmurodov, B.Z. Mustafayev [14], B.K. Mirzamaydinov [15], M. Nasritdinova, M.M. Abduraxmanova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o’z aksini topgan. Biroq globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ESG va Big Data omillari bilan bog’liq holda kompleks o’rganish masalasi yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Ushbu ilmiy izlanish aynan mazkur bo’shliqni to’ldirish, nazariy qarashlar va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida banklar transformatsiyasining zarurligi va real tayyorgarlik darajasi o’rtasidagi tafovut yangi risk maydonini shakllantiradi hamda tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Avvalgi tadqiqotlarda qayd etilganidek, “iqtisodiy xavfsizlik, ‘yashil’ iqtisodiyot va modernizatsiya o’zaro chambarchas bog’liq kategoriyalar bo’lib, ularning rivojlanishi obyektiv omillar bilan shartlangan” [3]. Shu bois, ESG tamoyillarini raqamli va analitik platformalar bilan integratsiyalash bank sektorining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida risk-menejment tizimida ESG (Environmental, Social, Governance) ma’lumotlarining o’rni va ahamiyatini kompleks baholash maqsadida tizimli nazariy tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu yondashuv bank faoliyatini alohida jarayonlar yig’indisi sifatida emas, balki o’zaro bog’langan elementlardan iborat yagona moliyaviy-iqtisodiy tizim sifatida ko’rib chiqish imkonini beradi. Shunga muvofiq, risk-menejment mexanizmlari, ESG ko’rsatkichlari, kredit portfeli sifati, moliyaviy barqarorlik hamda korporativ boshqaruv omillari o’zaro integratsiyalashgan tarkibiy qismlar sifatida tahlil qilindi.

Tizimli nazariy tahlil doirasida kirish bosqichida ESG ma’lumotlari va tashqi institutsional omillar, jarayon bosqichida risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring mexanizmlari, chiqish bosqichida esa bankning barqarorlik, likvidlik va rentabellik ko’rsatkichlari o’rganildi. Har bir elementning funksional vazifasi hamda ularning o’zaro ta’siri mantiqiy-taqqoslama va strukturaviy tahlil asosida asoslab berildi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish, abstraksiya, sintez va komparativ tahlil usullari orqali ESG omillarining kredit, operatsion va reputatsion risklarni boshqarish hamda kamaytirishdagi roli nazariy jihatdan izohlandi. Natijada ESG ma’lumotlarini risk-menejment tizimiga integratsiya qilish banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi muhim strategik instrument ekani konseptual jihatdan asoslandi. Shu tariqa tizimli nazariy tahlil tadqiqot metodologiyasining ilmiy poydevorini shakllantirib, bank faoliyatini barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit riski bank daromadlarining asosiy manbai bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'rta muddatli istiqbolda bankning iqtisodiy xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Operatsion va regulyator risklar ham kredit riski kabi tijorat bankida boshqaruv obyekti hisoblanadi, biroq risk-menejment tizimiga yangi ESG omillarining integratsiya qilinishi boshqaruv jarayonining murakkabligini va ko'lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Reputatsion risk esa uzoq muddatli strategik maqsadlarga ta'sir ko'rsatib, bank strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida alohida e'tiborni talab etadi.

Shu tariqa, bank iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi risklar landshafti bosqichma-bosqich emas, balki yuqori sur'atlarda yangilanib bormoqda. Bu jarayon bank biznes-jarayonlarining turli zonalarini, jumladan, bugungi kunda muhim funksional soha hisoblangan IT-infratuzilmani ham qamrab olmoqda. Bank sektorida raqamli texnologiyalar, xususan mikroxizmatlar va yakuniy iste'molchiga xizmat ko'rsatish tizimlarining faol (hatto boshqa tarmoqlarga nisbatan tezroq) joriy etilishiga qaramay, ESGning "yashil transformatsiyasi" bilan bog'liq yangi IT-vazifalar yuzaga kelmoqda.

Yangi ma'lumotlar oqimi asosan ESG baholashining "E" (ekologik) komponenti bilan bog'liq bo'lib, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yanada keng qamrovda baholash imkonini bermoqda. Ilgari banklar mijozlarning ekologik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilmagan, chunki bu ma'lumotlar biznesning asosiy parametrlariga bevosita ta'sir ko'rsatmagan. Shartli ravishda "birinchi zona" deb ataladigan masala — kiruvchi axborot oqimidan amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni ajratib olish — ESG birlamchi ma'lumotlarining yangiligi va past darajada tuzilganligi sababli yangi kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi. Masalan, 2018 yilda Rosbank o'zining tuzilmagan ma'lumotlar omborida 350 milliarddan ortiq yozuv mavjudligini qayd etgan. Bankda ma'lumotlarni yuklash, qayta ishlash va transformatsiya qilish bo'yicha qariyb 15 mingga protsedura mavjud bo'lib, har kuni omborga 7 milliondan ortiq yangi yozuvlar kelib tushadi.


Big Data doirasidagi ESG ma'lumotlar bloki jadal rivojlanmoqda va 2022 yilga kelib ushbu guruhga mansub parametrlar (ma'lumot turlari) soni 1000 taga yaqin deb baholanmoqda. Ikkinchi muhim zona — foydali ma'lumotlardan boshqaruv (operatsion) jarayonlarida, jumladan ilgari barqaror boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan prognozli tahlilda samarali foydalanishdir. Agar birinchi masala tashqi resurslarni jalb qilish, masalan, ayrim funksiyalarni outsorsing qilish orqali qisman hal etilishi mumkin bo'lsa (garchi bunday resurslar bozori cheklangan bo'lsa-da), ikkinchi zona bank menejmentining bevosita va strategik mas'uliyat doirasiga kiradi [4].

ESG bilan bog'liq risklarni boshqarish bo'yicha strategik choralar asosiy masalalardan birini — xodimlar tomonidan yangi muhim omillarni hisobga olish jarayonining ahamiyatini yetarli darajada anglashni — kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu bank korporativ madaniyatini rivojlantirish va transformatsion o'zgarishlarni tizimli ravishda boshqarishni talab etadi. Mazkur jarayon rejalashtirilgan tashkiliy yangilanish bo'lib, o'zgarishlarni boshqarishning murakkab shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bank barcha xodimlarini ESG talablari va ularning bank strategiyasidagi ahamiyati haqida xabardor qilishi zarur. Xodimlar faol jalb etilmaganda, o'zgarishlar jarayoni kundalik operatsion faoliyat darajasida sekinlashishi mumkin.

Strategik barqaror rivojlanish maqsadlarini bankning taktik tijorat maqsadlari, jumladan infratuzilmaga investitsiyalar va iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'lovchi kompleks normativ hujjatni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. ESG mezonlarini qaror qabul qilishning operatsion jarayonlariga integratsiya qilish — ya'ni bank risklariga ta'sirini baholashda ham, bankning tashqi muhitdagi ESG ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashda ham — IT-ta'minotga nisbatan yangi funksional va texnologik talablarni shakllantiradi. Bank IT-infratuzilmasining boshlang'ich holati, odatda, mavjud operatsion jarayonlarga moslashgan va xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, kengaytirilgan ma'lumotlar oqimini qabul qilish va qayta ishlashga har doim ham yetarlicha moslashgan emas. Shu sababli tarixan shakllangan murakkab IT-arxitekturaga yangi komponentlarning qo'shilishi o'rta va uzoq muddatli istiqbolda operatsion jarayonlarni murakkablashtirishi mumkin, bu esa tizimli modernizatsiyani talab etadi.

Mazkur jarayon ESG omillari ta'sirida shakllanayotgan yangi biznes-model rivoji bilan bog'liq tipik risklarni yuzaga keltiradi va ularni boshqarish bo'yicha kompleks yondashuvni talab qiladi. Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin [5]. Ma'lumotlar hajmi va xilma-xilligi operatsion qarorlar qabul qilishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni taqozo etadi, bu esa bankning raqobat ustunliklari tarkibida yangi analitik va texnologik kompetensiyalarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. "Ichki bank jarayonlari" bo'yicha asosiy tavsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: yangi ESG talablari va cheklovlarini mavjud boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish (masalan, kredit skoringi algoritmlarini qayta ko'rib chiqish); ma'lumotlarni qayta ishlash reglamentlarini, jumladan ularning tarkibi, himoyasi va yangilanish chastotasini optimallashtirish; ESG siyosatlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha aniq reja ishlab chiqish (masalan, investitsiyalar uchun "yashil" sertifikatlarini olish tartiblarini belgilash) [6].

ESG ma'lumotlarining murakkabligi va ko'p omilliligi ularning operatsion jarayonlarga chuqur integratsiyalashgan holatini grafik model orqali yaqqol ifodalash imkonini beradi (1-rasm).

1-rasm. Kredit jarayoniga ESG ma'lumotlarini kiritish¹

ESG ma'lumotlarini biznes-jarayonlarga integratsiya qilish uchun mos IT-arxitekturani yaratish va uni barqaror qo'llab-quvvatlash jarayonidagi asosiy murakkabliklar regulyator talablarining dinamik o'zgaruvchanligi, investorlar va manfaatdor tomonlarning nomoliyaviy ko'rsatkichlarga nisbatan ustuvorliklaridagi farqlar hamda baholash uchun zarur ma'lumotlar hajmining muntazam ortib borishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ESG mezonlarining kredit operatsiyalari rentabelligiga ta'siri amaliyotda allaqachon kuzatilmoqda: masalan, "yashil" qarz oluvchilar uchun kredit resurslari qiymatining milliy valyutada 0,4 foiz punktgacha, xorijiy valyutada esa 0,15 foiz punktgacha pasayishi mumkin. Yirik kredit portfeliga ega banklar uchun bu rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Biroq boshqa tomondan, regulyator tomonidan risklar bo'yicha rezervlash jarayonida muayyan imtiyozlar qo'llanilishi mumkin. Mazkur tuzatishlar va yuklamalar kredit jarayoniga kompleks va muvozanatli tarzda integratsiya qilinishi lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qarz oluvchining to'lovga layoqatsizlik riskini baholash, loyiha rentabelligini aniqlash hamda kredit qarorini qabul qilishda qo'llaniladigan an'anaviy moliyaviy mezonlar o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Muammolarning uchinchi yo'nalishi ESG ma'lumotlarini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, bu borada quyidagi chora-tadbirlar maqsadga muvofiq: bank ichida ESG ma'lumotlari aylanishi uchun markaziy javobgarlikni belgilash; turli manfaatdor guruhlar – moliyaviy blok, risk-menejment, IT-xizmatlar, ma'lumotlarni saqlash va himoya qilish bo'linmalari hamda ste'yxolderlar – manfaatlarini muvofiqlashtirish; ESG ma'lumotlarini bozor va regulyator talablaridagi o'zgarishlarga tezkor moslashtirish (masalan, ayrim energetika yo'nalishlariga investitsiya cheklovlari yoki alohida mahsulot segmentlariga qo'yiladigan talablarni inobatga olish) [7].

ESG omillarini bank biznes-jarayonlariga integratsiya qilish murakkabligi bilan bir qatorda, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga o'tish bank infratuzilmasiga tushayotgan yuklamani ham oshirmoqda va bu yangi moliyaviy hamda texnologik risklarni shakllantirmoqda. Xususan, IT-arxitekturaning uzluksiz kengayib borishi bilan bog'liq risklar "texnik qarz" tushunchasi orqali izohlanadi. O'zgaruvchan biznes sharoitlariga tezkor moslashish zarurati esa ushbu sharoitlarni tavsiflovchi katta hajmdagi ma'lumotlarning to'planishiga olib kelmoqda, bu esa banklardan yanada mukammal boshqaruv va texnologik modernizatsiyani talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

ESG-ma'lumotlarni bank boshqaruvi biznes-jarayonlariga integratsiya qilish bankning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki bu operatsion jarayonlarning yanada murakkablashuvi va yangi boshqaruv yondashuvlarini talab etadi. Mazkur jarayon ayrim operatsiyalarning daromadlilikiga hamda operatsion risklar darajasiga ta'sir etishi mumkin. Shu bilan birga, katta hajmdagi sust strukturaviylashtirilgan ma'lumotlarni mashinaviy qayta ishlash zarurati axborot infratuzilmasiga qo'shimcha yuklama tushiradi va ekspluatatsion

1 Muallif ishlanmasi

xarajatlarning ortishiga olib keladi. Biroq ushbu transformatsiya uzoq muddatli istiqbolda bankning barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

ESG-ma'lumotlarni tijorat banki boshqaruv jarayonlariga joriy etishning asosiy tamoyillari mualliflar tomonidan ajratilgan biznes-jarayonlarni boshqarishning uchta muammoli zonasi doirasida tavsiyalar shaklida bayon etildi. Xususan, yangi dolzarb masala sifatida texnik qarzni ortib borishi alohida e'tirof etilib, uni samarali boshqarish bo'yicha yondashuvlar taklif etildi.

Texnik qarzni o'ldirish, monitoring qilish va uni bosqichma-bosqich optimallashtirish mexanizmlari bankning moliyaviy modellari, boshqaruv instrumentlari hamda ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilinishi lozim. Bu, ayniqsa, bank risklari landshafti tezkor o'zgarib borayotgan sharoitda tijorat bankining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, operatsion barqarorligini ta'minlash va ESG-transformatsiya jarayonini muvozanatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жирнова Д. Р. Влияние ESG-факторов устойчивого развития на формирование кредитного и инвестиционного портфеля банка // Известия высших учебных заведений. Серия: Экономика, финансы и управление производством. – 2022. – № 2(52). – С. 6–13. <https://doi.org/10.6060/ivecofin.2022522.596>
2. Серов Е. Р. Ключевые тренды цифровой трансформации банковского бизнеса // Ученые записки Международного банковского института. – 2022. – № 2(40). – С. 201–221.
3. Сигова М. В. «Зеленая» экономика как фактор экономической безопасности // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2016. – № 3(99). – С. 47–53.
4. Бова С. Ускорение невозможно без аналитики [Электронный ресурс] // Банковское обозрение. – Режим доступа: <https://bosfera.ru/bo/uskorenie-nevozmozhno-bez-analitiki>
5. Ключников О. И. Big Data в прогнозной аналитике банков // Ученые записки Международного банковского института. – 2021. – № 1(35). – С. 43–60.
6. Никитина И. А., Барабанова М. И., Павлушков И. В. Российские регионы в повестке «зеленого перехода» // Ученые записки Международного банковского института. – 2022. – № 3(41). – С. 165–175.
7. Сигова М. В., Долбежкин В. А. Информация как новый ресурс рыночной экономики. Банковский аспект // Проблемы рыночной экономики. – 2022. – № 4. – С. 87–101. <https://doi.org/10.33051/2500-2325-2022-4-87-101>
8. Heller D., Reiter A., Schöbl S., Soller H. ESG data governance: A growing imperative for banks [Electronic resource] // McKinsey Digital. – Available at: <https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/tech-forward/esg-data-governance-a-growing-imperative-for-banks>
9. ESG-трансформация как вектор устойчивого развития. Т. 1. – М.: Издательство «Аспект Пресс», 2022. – 631 с.
10. Dalal V., Krishnakanthan K., Münstermann B., Patenge R. Tech debt: Reclaiming tech equity [Electronic resource] // McKinsey Digital. – Available at: <https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/tech-debt-reclaiming-tech-equity>
11. Berdiyarov B. T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2002. – 21 b.
12. Kotov V. A. Organizatsiya rynka tsennykh bumag. – T.: «Moliya», 2007; Butikov I. L. Rynok tsennykh bumag Uzbekistana: problemy formirovaniya i razvitiya. – T.: «Konsauditinform Nashr», 2008.
13. Jumayev N. X., Abdurahmonov O. Q. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. – T.: Akademnashr, 2010. – 160 b.
14. Sattorov O. B. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlashni takomillashtirish: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2008. – 21 b.
15. Tojiyev R. R. Tijorat banklari likvidliligini boshqarishning innovatsion strategiyasi ("Agrobank" OATB misolida): Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T.: TDIU, 2011.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100